

INSON va qonun

2024-YIL
19-MART
SESHANBA

№ 11
(1423)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz [telegram.me/hudud24official/](https://t.me/hudud24official/) facebook.com/hudud24official/

Abdulla ORIPOV,

O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri

Navro'z

Avval yuragingga mo'ralaydi u,

So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z.

Zaminning ko'zidan qochadi uyqu,

Demak, Bahor keldi,

Kelmoqda Navro'z.

Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,

Yum-yum yosh to'kmoqda eriyotgan muz.

Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,

Demak, Bahor keldi,

Kelmoqda Navro'z.

Ona bag'ri kabi iliqdir olam,

Harir hovuch ichra yayrar dala-tuz.

Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig' g'am,

Demak, Bahor keldi,

Kelmoqda Navro'z.

Yana ko'ngillardan rutubat ketdi,

Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.

Yana dildorlikning fursati yetdi,

Demak, Bahor keldi,

Kelmoqda Navro'z.



E'tirof

8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida respublikamizning bir guruh fidoiy ayollari "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Ular orasida hamkasbimiz, mohir ijodkor, jonkuyar va iste'dodli jurnalist Marusa Hosilovaning ham borligi jamoamizni behad quvontirdi.

E'tirof etish kerak, Marusa Hosilova ham ona sifatida, ham ijodkor sifatida o'zbek ayolining quvonchu tashvishlarini, dardu kechinmalarini teran his qila olgan insondir. Bu esa uning har bir maqolasida, she'riy satrlarida ham namoyon bo'ladi.

Muvaffaqiyatlaringiz bardavom bo'lsin, Marusa Atoqulovna!

"Adolat" milliy huquqiy axborot markazi jamoasi

Navro'zing
qutlug' bo'lsin, yurtim!

2 FAOLIYAT

MAHSULOT
YETKAZILGAN, MABLAG'I
ESA TO'LANMAGAN

Uzun tuman adliya bo'limi tomonidan tumandagi "Asilbek Fayziddin 777" MChJ rahbari M. Ashurovaning tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limidan mavjud qarzdorlikni undirishda amaliy yordam so'rab yozgan murojaati o'rganib chiqildi.

Aniqlanishicha, "Asilbek Fayziddin 777" MChJ hamda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi o'rtasida 2023-yil 1-martda tuzilgan shartnomaga asosan MChJ tomonidan "Nargiz" nomli 15-maktabgacha ta'lim tashkilotiga 19 million so'mlik, 4-apreldagi shartnomaga asosan 38 million so'mlik, jami 57 million so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berilgan. Ammo mahsulotning yetkazilgani to'g'risida 243, 272, 244-sonli hisob-fakturalari tuzilgan bo'lsa-da, 57 million so'm qarzdorlik to'lanmagani ma'lum bo'ldi.

Aniqlangan qonunbuzilish holatlari yuzasidan tadbirkor M. Ashurovaning manfaatini ko'zlab, Sariosiyo tumanlararo iqtisodiy sudiga kiritilgan da'vo ariza sud tomonidan qanoatlantirilib, sudning 2024-yil 15-fevraldagi hal qiluv qaroriga asosan "Asilbek Fayziddin 777" MChJ foydasiga 57 million so'm qarzdorlik undirib berildi.

Abdug'affor SHARIPOV,
Uzun tuman adliya bo'limi boshlig'i

2024-yil 27-fevralda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun 2024-yil 28-fevraldan kuchga kirdi.

KREDIT OLISH
VA QAYTARISHDAGI
O'ZGARISHLAR

Keyingi yillarda aholi va tadbirkorlik subyektlariga banklar hamda boshqa kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy xizmatlarni yanada kengaytirishga va ularning sifatini yaxshilashga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aholining mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabi oshib borayotgani mikroqarz berishning eng yuqori miqdori qayta ko'rib chiqilishini taqozo etdi. Shu sababdan, yuqoridagi qonun bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, Fuqarolik kodeksiga quyidagi bir qator tartiblarni ko'zda tutuvchi o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, to'lov summasi qarz oluvchi jismoniy shaxsga yoki qarz oluvchi tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mikroqarz yoki kredit bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, birinchi navbatda asosiy qarzning uzilishini ta'minlash belgilandi.

Endilikda, mazkur qonunga ko'ra, ajratilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda, foizlar va neustoyka hisoblash to'xtatiladi. Bunda qarz oluvchining qarzi quyidagi tartibda qoplanadi:

- asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- neustoyka (jarima, penya);
- kreditning qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.



Shuningdek, "Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risida"gi qonunga mikroqarzni eng yuqori miqdori 50 million so'mdan 100 million so'mgacha oshirilishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritildi.

Ushbu qonun kredit oluvchilar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratishga va aholining mikromoliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Isroiljon MURODOV,
Farg'ona shahar adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

Payariq tumanida joylashgan "Nassar M Bussines" fermer xo'jaligi uzumchilik va bog'dorchilikka ixtisoslashgan bo'lib, yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Xo'jalik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanibgina qolmay, ularni qayta ishlab, tayyor mahsulot tarzida bozorga olib chiqadi. Tumanning "Shirin sohibkor" qishlog'ida 37 gektar lalmi yerning 17 gektarida yetishtirilayotgan 3 xil turdagi uzum, xorijdan olib kelingan serhosil yong'oq va boshqa turdagi mevali daxrlar hosilga kirib, ulardan tayyorlanayotgan mahsulotlar bugungi kunda chet elga ham eksport qilinmoqda.

"HECH BIR
SHAXS HUJJATSIZ
QOLMAYDI"

Tuman adliya bo'limiga kelib tushgan navbatdagi murojaat mazkur fermer xo'jaligining bir necha oylardan buyon sarson bo'layotgani bilan bog'liq. Xo'jalik mas'ullari amaliyotdagi qonunchilikda mavjud bo'lgan bir-biriga zid normalar sabab fermer xo'jaligi raisini o'zgartirish masalasida tegishli idoralar eshigi oldida ancha sarg'aygan. Foydasiz rasmiyatchiliklardan charchagan fermer "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi doirasida adliyaga murojaat qildi.

Muammo adliya aralashuvi bilan bartaraf etildi. Fermer xo'jaligi mas'ullariga tuman davlat xizmatlari markazi xodimlari tomonidan sayyor davlat xizmati ko'rsatilib, muammo qonuniy yechim topdi.

Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
Axborot xizmati

Bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, qabul qilinayotgan qaror va farmonlar o'z natijasini bermoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi aholisi uchun alohida e'tibor qaratayotgani 2024-yil 9-fevralda "Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi albatta e'tiborga molik.

Qoraqalpog'iston yoshlari uchun imtiyozlar



Ushbu qaror Qoraqalpog'iston Respublikasining qishloq xo'jaligi sohalarini jadal rivojlantirish, tadbirkorlik va xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholi va yoshlar bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Qaror yuzasidan yoshlar uchun bir qator chora-tadbirlar belgilandi. Ya'ni, Qoraqalpog'iston Respublikasida 2024-2025-yillarda maxsus sanoat (erkin iqtisodiy), kichik sanoat, yoshlar va tadbirkorlik sanoat zonalarida loyihalarni joylashtirish uchun auksion savdolariga chiqariladigan bo'sh yer maydonlari ro'yxati e'lon qilinadi. 2024-yildan boshlab har yili "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida 1,5 ming nafar yoshlar, xususan 900 nafari raqamli texnologiyalarga va 600 nafari xorijiy tillarga o'qitiladi. Bunda raqamli texnologiyalarni o'rganish uchun "Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan yoshlarga subsidiya ajratish muddati Qoraqalpog'iston Respublikasi uchun bir yilgacha uzaytiriladi. 2024-yilda kichik sanoat zonalar, yoshlar, tadbirkorlik va sanoat zonalar infratuzilma obyektlari uchun Qoraqalpog'iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 5 milliard so'm ajratiladi.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lida yurtning jadal rivojlanishi va muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bevosita aloqador. Shu ma'noda Qoraqalpog'iston yoshlari masalasiga davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi bejiz emas. Yoshlarimiz esa, mana shu berilayotgan imkoniyatlardan oqilona foydalanishi, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qilishi, bayrog'imizni jahon miqyosida ko'klarga ko'tarishi uchun sidqidildan harakat etmog'i lozim.

“

Bundan tashqari, Yurtboshimiz Qoraqalpog'istonda turizmni, ayniqsa, uning eko, etno, ziyorat yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha dastur ishlab chiqish, turizm klasteri tashkil etish va sohaga xorijiy ekspertlarni jalb qilish, mehmonxonalar qurish, muzeylarni modernizatsiya qilish, qo'l bo'yi xizmatlarini kengaytirish vazifalarini ko'rsatib o'tgan edi. Shu asnoda Qoraqalpog'istonga 2024-yilda 2,1 milliard dollar investitsiya jalb etilishi mo'ljallanmoqda. Shu o'rinda qaratilayotgan bu imkoniyat va imtiyozlardan samarali, oqilona foydalana olayapmizmi, degan haqli savol tug'iladi.

Albatta, yuqorida ta'kidlanganidek, Qoraqalpog'iston Respublikasini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, uning iqtisodiyotini erkinlashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Jumladan, Prezidentimizning 2023-yil 8-avgustda "Qoraqalpog'iston Respublikasida tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Ushbu farmonda Qoraqalpog'istonda biznes muhitini yanada yaxshilash bo'yicha tadbirkorlik subyektlarining loyihalariga 2025-yil 1-yanvargacha qadar "Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tomonidan, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda aylanma mablag'larini shakllantirish maqsadlarida milliy va xorijiy valyutada ajratiladigan kredit miqdorining 75 foizigacha, biroq 5 milliard so'mdan ortiq bo'lmagan miqdorda, kafillik shartnomasini bir tomonlama bekor qilmaslik sharti bilan kafillik taqdim etiladi, deya belgilab qo'yildi.

Shuningdek, kichik hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya majburiyatlarini bajargan tadbirkorlarga yer uchastkalarini, bino va inshootlarni xususiyashtirib berish tartibi belgilanadi.


Har qanday huquqiy hujjatning qabul qilinishi zamirida, eng avvalo, inson manfaati, qadr-qimmati, uning huquqlari mujassam. Har bir insonning o'z hayotidan shukronalik hissi bilan ertangi kunga dadil qadam tashlashi, barqaror taraqqiyot va farovon hayot asosi bo'lishi muqarrar!

Yelmurod TURSUNOV,

Qoraqalpog'iston Respublikasi adliya vaziri

Yoshlar masalasi bugunning dolzarb vazifasi. Ularning huquqiy masalalari, muammolarini o'rganish, dardiga quloq tutish har bir davlat idorasining burchi. Bevosita Samarqand viloyatidagi adliya organlari ham ayni paytda mazkur masalada tizimga birlashtirilgan 30 ming nafardan ortiq viloyat yoshlarini qamrab olish, murojaatlari, huquqiy muammolarini o'rganish, hal qilish borasida tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

HUQUQSHUNOSHLAR MAHALLADA



Jumladan, Oqdaryo tuman davlat xizmatlari markazi xodimlari tumandagi "Miyonqol" mahallasidagi ishsiz yoshlar xonadonlarida bo'lib, ularning murojaatlarini o'rgandi. Ma'lumki, Oqdaryo va Qoradaryo oralig'idagi ushbu hudud qadimdan dehqonchilik uchun qulay joy hisoblanadi. Adliya mas'ullari bilan muloqotda qishloq yoshlari asosan dehqonchilik uchun yer olishda yordam so'radi.

Xususan, mazkur mahallaga qarashli Oqbuyra qishlog'ida yashovchi 23 yoshli Lazizjon Abubakirov dehqonchilik bilan shug'ullanish maqsadida 30 sotix yer ajratish masalasini ko'tardi. Uning bu murojaati ro'yxatga olinib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi. O'rganishda 20 nafardan ortiq yoshlar bilan suhbatlashilib, ular o'rta tashlagan masalalar, muammolar ro'yxatga olindi. Albatta, bu masalalar bir kunda bitadigan ish emas. Bu jarayon kompleks yondashuv, vaqt talab qiladi. Miyonqollik yoshlarning murojaatlari ham tegishli tashkilotlar bilan birgalikda ko'rib chiqilib, ijroga qaratiladi.

**Samarqand viloyat adliya boshqarmasi
axborot xizmati**



Endi korrupsiyaviy jinoyat sodir etgan shaxslarning davlat xizmatiga kirishi cheklanishi mumkin.

4 JARAYON

“KONTRAFAKTSIZ OY”



Prezidentimizning 2021-yil 28-yanvardagi “Intellectual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarorida har yili 15-fevral – 15-mart kunlari respublika bo’ylab kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi real samarali kurashishni ko’zda tutuvchi “Kontrafaktsiz oy” oyligini o’tkazish belgilangan.

Albatta, bu bejiz emas. Negaki, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashning eng samarali usuli aholining huquqiy savodxonligini oshirishdir.

Avvalo, shuni ta’kidlash lozimki, kontrafakt mahsulot bu – intellektual mulk huquqlari buzilishi natijasida vujudga kelgan mahsulot hisoblanadi. Yanada aniqroq aytadigan bo’lsak, kontrafakt mahsulot – o’zganing tovar belgisiga yoki shu belgiga o’xshash belgidan qonunga xilof ravishda foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hisoblanadi.

Dunyo miqyosida kontrafakt tovarlarning aylanmasi yiliga o’rtacha 200-360 milliard dollarni tashkil qiladi. Bu esa mamlakatlar iqtisodiyotiga milliardlab zarar yetkazadi.

Har yili Adliya vazirligi tashabbusi bilan o’tkaziladigan “Kontrafaktsiz oy” oyligida Davlat soliq qo’mitasi va Davlat bojxona qo’mitasi asosiy hamkorlar sanaladi. Ayni oylik doirasidagi tadbirlar asosan yirik bozorlar, savdo markazlari va do’konlarda kontrafakt mahsulotlar realizatsiyasiga qarshi real samarali kurashishni ko’zda tutuvchi targ’ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish orqali kechadi.

O’zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “Tovar belgilari, xizmat ko’rsatish belgilari va tovardan kelib chiqqan joy nomlari to’g’risida”gi qonunida “Kontrafakt mahsulot” tushunchasiga ta’rif berilgan. Qonunning 27-moddasiga ko’ra, tovar belgisidan yoki adashtirib yuborish darajasida u bilan o’xshash bo’lgan belgidan tovarlarda, tovarlarning etiketkalarida, o’rovlarida qonunga zid ravishda foydalanilganda ular kontrafakt hisoblanadi.

Insofsiz ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan kontrafakt mahsulot bilan asl mahsulotlar o’rtasi-

dagi (ko’pincha mashhur brendlardan ko’chiriladi) farqni sezmaydigan darajada xaridorlarning xayolida asl mahsulotning ong osti tasavvurini yaratadi va bu orqali ularni chalg’itishga harakat qiladi.

Har doim ham asl va kontrafakt mahsulotlar o’rtasidagi farq unchalik bilinmaydi. Iste’molchilar esa e’tiborsizlik oqibatida o’rtadagi farqni sezmaydi. Ularni kontrafakt mahsulotlarning arzon narxlari o’ziga jalb qiladi. Kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish nafaqat asl ishlab chiqaruvchilarning intellektual mulk huquqlarini buzadi, balki iste’molchilarning hayoti va sog’lig’iga tahdid soladi.

Statik ma’lumotlarga ko’ra, 2023-yil davomida respublikamizda intellektual mulk huquqini buzish orqali asosan oziq-ovqat mahsulotlari (61 foiz), mualliflik va turdosh huquqlar (19 foiz), gigevena (9 foiz), alkogol (5 foiz), farmatsevtika (3 foiz) va boshqa turdagi mahsulotlar (3 foiz) ga nisbatan kontrafakt mahsulotlar va nusxalarini tayyorlash aniqlangan. Shu bois, Adliya vazirligi va hududiy adliya boshqarmalari tomonidan intellektual mulk obyektlariga bo’lgan huquqlarini himoya qilish sohasida intellektual mulk obyektlarining huquqiy himoya qilinishini ta’minlash, kontrafakt mahsulotlarni ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga qarshi kurashishda ta’sirchan choralar ko’rilmoqda. Jumladan, intellektual mulk sohasida huquqbuzarlik sodir etgan 249 nafar shaxs sud tomonidan ma’muriy jarimaga tortilgan bo’lsa, 637 ta tashkilotga qonunbuzilishlarni bartaraf etish to’g’risidagi taqdimnomalar kiritildi.

Sardor AMIRQULOV,

Toshkent shahar adliya boshqarmasi mas’ul xodimi

Bugungi kunda naslchilik faoliyati bilan shug’ullanuvchi yoki naslli mahsulotga ega bo’lgan jismoniy va yuridik shaxslar naslchilik xo’jaligi maqomini davlat xizmatlari markazi orqali olishlari mumkin. Ayni masala Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 5-sentabrdagi “Naslchilik xo’jaligi maqomini berish bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatishning ma’muriy reglamentini tasdiqlash to’g’risida”-gi qarori asosida amalga oshiriladi.

NASLCHILIK XO’JALIGI MAQOMI uni berish ham davlat xizmatlari sirasiga kiradi



Ya’ni, naslchilik bilan shug’ullanuvchi ilmiy-tadqiqot va boshqa tashkilotlar, seleksiya markazlari, ippodromlar, immunogenetik nazorat laboratoriyalari, nazorat-sinov stansiyalari, embrionlarni ko’chirib o’tkazish (transplantatsiya) markazlari hamda naslli mahsulotga ega bo’lgan jismoniy va yuridik shaxslar yoki ularning vakillariga naslchilik xo’jaligi maqomini berish davlat xizmatlari markazlari va O’zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali tushgan murojaat asosida Respublika qishloq xo’jaligi vazirligi huzuridagi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo’mitasi hududiy boshqarmalari tomonidan beriladi.

Ta’kidlash joizki, bunday maqom naslchilik zavodi, naslchilik xo’jaligi, maqomini olishga talabgorlar uchun – so’nggi 3 yilda o’tkazilgan naslli mahsulotlar (materiallar)

bonitirovkasi natijalari bo’yicha ma’lumotnomalar nusxasi, nasldor chorva hayvonlarining identifikatsiya qilingani to’g’risidagi ma’lumot, tegishli chorva hayvonlari tur-lari bo’yicha naslchilik xo’jaligi maqomini olish uchun minimal talablarga muvofiqligi bo’yicha talabgor tomonidan tasdiqlangan ma’lumotlar taqdim etilganda beriladi. Naslchilik xo’jaligi maqomini berishda talabgorning murojaatida ko’rsatilgan muayyan toifaga mansub zotdagi chorva hayvonlari (yovvoyi va xonaki hayvonlar, shuningdek, parrandalar, baliqlar, muayyan hayvonlar hamda asalarilar) turi yoki faoliyat yo’nalishi inobatga olinadi.

Talabgorlar yoki ularning vakillariga davlat xizmati ko’rsatganlik uchun bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida, YIDXP orqali murojaat etilganda esa mazkur miqdordan 10 foiz kam yig’im undiriladi. Vakolatli organ joyiga chiqqan holda taqdim etilgan ma’lumotlar to’g’riligini 10 ish kuni mobaynida o’rganadi. Shuningdek, tumanlar (shaharlar) veterinariya bo’limlari orqali talabgorning epizootik barqarorligi, veterinariya-sanitariya qoidalari va normalari ham o’rganiladi.

Naslchilik xo’jaligi maqomini olgan subyektlar harakatlarni bajarish va (yoki) muayyan faoliyatni amalga oshirishda qonunchilik hujjatlarida belgilangan talab va shartlarga rioya etishi, naslchilik subyekti – yuridik shaxs bo’lganda va uning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o’zgarganda, yakka tartibdagi tadbirkor bo’lganda hamda uning davlat ro’yxatidan o’tkazilgani to’g’risidagi guvohnomada ko’rsatilgan familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko’rsatadigan joyi o’zgarganda, qayta davlat ro’yxatidan o’tganidan so’ng vakolatli organni xabardor qilishi, naslchilik xo’jaligi maqomining tegishli toifasi bo’yicha me’yor va qoidalarga rioya etishi shart.

Naslchilik xo’jaligi maqomi berilgani to’g’risidagi guvohnoma 5 yil muddatga beriladi. Guvohnoma olgan shaxs uni boshqa shaxsga foydalanish uchun berishi mumkin emas.

Jahongir ABDUSATTOROV,

Qibray tuman adliya bo’limi davlat xizmatlari markazi sho’ba boshlig’i

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 12-dekabrdagi “Ko’chmas mulk obyekti kadastr pasportining yangi namunasini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qaroriga asosan, ko’chmas mulk obyektlariga bo’lgan huquqlarni davlat ro’yxatidan o’tkazish tizimi ancha takomillashtirildi. Mazkur qarorga muvofiq, 2020-yilning 1-martidan boshlab yangi namunadagi kadastr pasporti joriy etildi.

ISLOHOTLAR ZAMIRIDA INSON MANFAATI MUJASSAM

Yangi namunadagi kadastr pasportining afzalligi shuki, avvalo, barcha kadastr ma’lumotlari bir joyda, yagona ma’lumotlar bazasida saqlanadi. Smart karta ichidagi ma’lumotlar onlayn ravishda bazaga ulangan holda ko’riladi. Uy-joy bilan bog’liq barcha kadastr ishlari doimiy ravishda elektron tarzda qayd etib boriladi hamda elektron kadastr tarixi vujudga keladi.

Bordi-yu, bu hujjat yo’qolib qolsa yoki yaroqsiz holga kelib qolgan vaziyatlarda masofadan turib bloklanadi va qisqa vaqt ichida yangi kadastr pasporti taqdim etiladi. Geoportal bilan integratsiya natijasida uy-joyning geografik maydoni va chegarasi to’g’risida o’ta aniq ma’lumot smart kartadan joy oladi. Maxsus mobil ilova orqali kadastr pasporti ma’lumotlarini ko’rish imkoni yaratiladi. Buning uchun smart kartani telefonga yaqinlashtirish kifoya.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 2-sentabrdagi “Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko’rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to’g’risida”gi qaroriga binoan yuridik va jismoniy shaxslarga mulk huquqi asosida tegishli bo’lgan ko’chmas mulk obyektlarini rasmiylashtirish bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatish tartibi belgilandi. Shuningdek, kadastr pasportini rasmiylashtirish muddatlari ham qisqartirildi. Qolaversa, ko’chmas mulk obyekti kadastr hisobiga olish va kadastr yig’majildini shakllantirish natijasida elektron shaklda kadastr pasporti rasmiylashtiriladi.

Ko’p qavatli uydagi kvartiralar uchun kadastr pasportini tayyorlash 3 ish kunigacha, yakka tartibdagi turarjoyniki esa 5 ish kunigacha bo’lgan muddatda tayyorlanadi. Ko’chmas mulk obyektlarining noturar joyga oid qismi bo’yicha esa 25 ish kunigacha etib belgilangan.

Kadastr yig’majildi shakllantirilgandan so’ng kadastr pasportini berish uchun to’lov miqdori ko’rsatilgan xabarnoma (invoys) davlat xizmatlari markaziga yoki ariza beruvchiga elektron shaklda yuboriladi. Ariza beruvchi xabarnomani olgandan so’ng 1 oy mobaynida to’lovni amalga oshiradi.

Muxtasar aytganda, ko’chmas mulkni hujjatlashtirish jarayonlarining soddalashtirilgani yurtdoshlarimizning og’irini yengil qildi. Ushbu islohotlar zamirida esa inson manfaati mujassam, albatta.

Nargiza YUSUPOVA,

Qibray tuman adliya bo’limi davlat xizmatlari markazi mas’ul xodimi

SO'RAGAN EDINGIZ

TIBBIYOT XODIMLARIGA qancha miqdorda ustama to'lanadi?



– Uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan tibbiyot xodimlariga qancha miqdorda ustama to'lanadi? Fan doktori yoki fan nomzodi yoxud falsafa doktori ilmiy darajasi bo'lgan xodimlar ham qo'shimcha haq olishadimi?

– “O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari tibbiyot va farmatsevtika xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibi va shartlari to'g'risida”gi Nizomga muvofiq tibbiyot xodimlariga ustamalar berish shartlari belgilangan.

Shifokorlarga, o'rta va kichik tibbiyot xodimlariga, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimining barcha muassasalari farmatsevtika xodimlariga uzluksiz ish stajiga ega bo'lganda ustamalar to'lanadi.

Xususan, uzluksiz ish staji 5 yildan 10 yilgacha bo'lganda tarif stavkasining 5 foizi miqdorida, 10 yildan 15 yilgacha bo'lganda 10 foizi miqdorida, 15 yildan 20 yilgacha bo'lganda 15 foizi miqdorida, oliy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun esa tarif stavkasining 20 foizi miqdorida hamda 20 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganda 20 foizi miqdorida ustama belgilanadi.

Sog'liqni saqlash muassasasi xodimlarining alohida muassasalar, bo'linmalar va lavozimlarda uzluksiz ish staji uchun ustamalar miqdori bundan mustasno.

Shoshilinch tibbiy yordam xizmatining shifokorlariga, o'rta va kichik tibbiyot xodimlariga, uzluksiz ishlangan birinchi uch yil uchun hamda har bir keyingi ikki yil uchun tarif stavkasiga nisbatan 10 foiz miqdorida belgilanadi, ustamaning eng ko'p miqdori 30 foizgacha.

Qishloq vrachlik punktlarining umumiy amaliyot shifokorlariga tarif stavkasiga nisbatan 25 foiz miqdorda maxsus har oylik ustama belgilanadi.

Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2022-yil 17-maydagi “Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga ko'ra, 2022-yil 1-iyundan boshlab Tibbiyot muassasalarini moddiy rag'batlantirish va rivojlantirish jamg'armasining 75 foiz mablag'lari guruhidan qat'i nazar, barcha davlat tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy rag'batlantirishga yo'naltirilishi belgilandi.

Bunda xodimlarni moddiy rag'batlantirishga ajratilgan mablag'lar hisobidan davlat tibbiyot muassasasining

yuqori malakali, alohida natijaga erishgan, halol va vijdonan ishlayotgan tibbiyot hamda farmatsevtika xodimlariga oylik lavozim maoshi-ning 100 foizigacha hamda boshqa xodimlarga 75 foizigacha oylik ustamalar berilishi ta'kidlandi.

Ushbu qaror bilan 2022-yil 1-iyuldan boshlab viloyatlar hamda Toshkent shahridan, shuningdek, xorijiy davlatlardan Qoraqalpog'iston Respublikasining Taxtako'pir, Chimboy, Qorao'zak, Bo'zatov, Shumanay, Qo'ng'iro't tumanlariga borib ishlovchi shifokorlarning oylik lavozim maoshiga dastlabki uch yil davomida 100 foiz, Mo'ynoq tumani-da esa 200 foiz miqdorida qo'shimcha har oylik ustama to'lovlari davlat budjeti mablag'lari hisobidan to'lanishi belgilab qo'yildi.

Bunda qarorning mazkur bandida ko'rsatilgan ustamani olish uchun shifokor boshqa hududda kamida ikki yil ishlagan hamda ikkinchi darajali malaka toifasiga ega bo'lgan bo'lishi lozim.

Shuningdek, qaror bilan o'rnatilgan tartibga muvofiq: 2022-yil 1-sentabrdan boshlab davolash-profilaktika muassasalarining xodimlariga ularning tibbiyot sohasidagi ilmiy rivojlantirishga qo'shayotgan hissasini inobatga olgan holda, davlat budjeti mablag'lari hisobidan fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasi uchun lavozim maoshi-ning 60 foizigacha va fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun lavozim maoshi-ning 30 foizigacha miqdorda har oylik qo'shimcha haq to'lanadi.

Akramjon DEHQANOV,

Uychi tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi boshlig'i

Yangilangan Konstitutsiyada barcha sohani rivojlantirishga olib keluvchi o'zgarishlar ilgari surildi. Jumladan, ta'lim sohasiga oid ba'zi yangi moddalar kiritildi. Davlat oliygohlarida davlat hisobidan o'qishga imkon beruvchi grantlar soni 2 barobarga oshirilib, 40 mingtaga yetkazilishi rejalashtirildi. Magistratura bosqichida esa grantlar soni 5 barobarga ko'paytirilishi ham ta'limga bo'lgan katta e'tibor natijasidir.

TA'LIMGA E'TIBOR – KELAJAKKA E'TIBOR

Har bir fuqaroga bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim berilishi davlat tomonidan kafolatlanadi. Shuningdek, nogironligi mavjud bolalar-ning tengdoshlari bilan bir xil ta'lim olishi uchun sharoit yaratilmoqda. Bu esa har bir fuqaro davlat oldida teng huquq va erkinliklarga ega ekanining yorqin isbotidir. Aynan ta'limga oid moddalardan biri bo'lgan 51-moddaga ko'ra: “Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega”.

Bu esa, o'z navbatida, oliy ta'lim sohasida keng islohotlar olib borishning imkonini beradi. Masalan, aynan oliy ta'lim muassasalarida turli tadqiqot markazlari tashkil etilishi va o'quv dasturlarini o'zlarining o'qitish maqsadlaridan kelib chiqqan holda tuzish va o'zini o'zi moliyalashtirgan holda boshqara olish kabi keng qamrovli erkinliklar yaratadi.

Konstitutsiyaning 52-moddasiga muvofiq, o'qituvchilarning jamiyatdagi o'rni yanada mustahkamlandi.

Ushbu moddaga asosan, O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini boyitishning asosi sifatida e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Bu esa azaldan e'tirofqa sazovor, sharafli kasb hisoblangan o'qituvchilik kasbining mavqei oshirgan holda bu kasb egalari davlat himoyasida ekani va ularni kamsituvchi har qanday harakat qonun doirasida tegishli jazolanishini mustahkam belgilab qo'ydi. Bu ayni paytda yechimini kutayotgan dolzarb mavzuga aylanganining ham guvohi bo'lyapmiz. Yuqoridagi norma bunday salbiy holatlar, ba'zi bir shaxslar tomonidan ustozlarga nisbatan qo'pol xatti-harakatlarning amalga oshirilishi odatiy tus olishi kabi holatlarni cheklaydi.

Konstitutsiyaning 53-moddasiga ko'ra, har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi. Mazkur moddaga intellektual mulkni qonun bilan muhofaza qilishga oid norma kiritildi. Bu ham jamiyatda birorta muallifning mulki hisoblangan maqola, kitob yoki umuman har qanday intellektual ishlar patentlangan holda muallifning ruxsatisiz ishlatilishining oldini oladi, albatta.

Bosh qomusimizdagi bu kabi o'zgartish va qo'shimchalar, albatta, hamma sohalarda, xususan, ta'lim sohasida fuqarolarga keng huquq va erkinliklarni yaratib berdi. Bu esa kelajakda O'zbekistonda ta'limning yanada taraqqiy etishiga hissa qo'shishi shubhasiz.

Gulhayo BO'RIYEVA,

Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

Psixologiya fanlarining muhim yo'nalishi sanalgan tibbiyot psixologiyasi bugungi kunda o'ziga xos tarzda takomillashib, rivojlanib bormoqda. Jamiyatdagi har bir soha bir-biri bilan uzviy bog'liq, albatta.

ICHKI ISHLAR TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT



Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, huquqbuzarliklarning oldini olishda, jinoyatchilikka qarshi kurashda har bir ichki ishlar organlari xodimidan hushyor va ogoh bo'lish talab etiladi. Bu jarayonda tibbiyot muassasalarida psixologik xizmat qoida va talablarga rioya qilgan holda olib borilishi, mukammal tibbiy psixologik xizmat ko'rsatilishi juda muhimdir.

Ichki ishlar organlari tizimining tibbiyot sohasida psixologik xizmat ko'rsatish amaliyotidan hozirgi kunda boshqaruv tizimida kadrlarni tanlash va ishga joylashtirish, ularning tashkilotchilik, tashabbuskorlik qobiliyatlarini aniqlash hamda lavozimga tavsiya qilishda layoqat darajasiga oid ma'lumotlar to'plash jarayonlarida keng qo'llanilmoqda.

Psixologik xizmat amaliyoti, eng avvalo, insonga, uning salomatligiga yordam bera olishi bilan ham ahamiyatlidir. Chunki sog'lom ruhiyat ustuvorlik qilgan odamda hamisha o'z kasbiga, taraqqiyotga va hayotga bo'lgan ijobiy munosabat namoyon bo'ladi. Natijada insonning o'z hayotidan mamnunligi ta'minlanadi. Bu esa uni yanada ko'proq intilishga chorlayveradi.

Qadimdan meros qolgan tibbiyotning oltin qoidasi shu – ruhni davolamay turib, tanani davolab bo'lmaydi. O'z kasbini sevgan har bir tibbiy psixolog ish jarayonida o'ziga xos tajriba orttiradi, o'zining yo'nalishini topadi. Shu ma'noda, kasb yo'nalishimga oid ayrim masalalarda takliflarim bor. Masalan, davolash-profilaktika muassasalarida musiqaterapiya musiqiy eshittirishlar tashkil qilish mumkin. Tibbiyot xodimlari va psixologlarning o'zaro integratsiyasini kuchaytirish va amaliy psixologlarni davolash-profilaktika muassasalariga kengroq jalb qilish, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Nafaqat Toshkent shahri va Tibbiyot boshqarmasi markaziy muassasalarida, balki, viloyat tibbiyot bo'limlarida, gospitallarda davolanayotgan bemorlarga psixologlarni jalb etish orqali davolash samaradorligini oshirishga erishiladi.

Muhabbat AHMEDOVA,

Ichki ishlar vazirligi tibbiyot boshqarmasi xotin-qizlar masalalari bo'yicha bosh inspektori

6 SUD ZALIDAN

Bankdan umrida hech qachon qarz olmagan shaxsga kredit qarzdorligini to'lash to'g'risida qog'oz kelsa, kishining hushi boshidan uchishi aniq. Keyingi vaqtda fuqarolar bunday muammolarga bot-bot duch kelayotgani axborot texnologiyalari taraqqiyotidan o'z manfaati yo'lida foydalanayotgan firibgarlar ko'payayotganini ko'rsatmoqda. Ammo xalqimizning "Buzoqning yugurgani somonxonagacha..." degan maqoli ham bekorga aytilmagan.



Nahotki...

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi tomonidan da'vog'arlar – M. Nosirov va M. Abdullayevning javobgar – "Anor bank" AJga nisbatan mikroqarz shartnomalarini haqiqiy emas, deb topish haqidagi da'vo arizasi ko'rib chiqildi. Aniqlanishicha, 2023-yil mart, aprel, may oylarida da'vog'arlarning jamoadoshi – Temir yo'l sohasidagi tashkilotlardan birida kadrlar bo'limi mas'ul xodimi vazifasida ishlaydigan K. Shodiyev o'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, hamkasblarining fuqarolik pasportidagi ma'lumotlardan foydalanib, ularning nomiga bankdan 90 million 400 ming so'm qarz olgan.

Ushbu harakatlari uchun K. Shodiyev jinoyat ishlari bo'yicha Sirdaryo tuman sudining 2023-yil 23-oktabrdagi hukmiga binoan Jinoyat kodeksining tegishli moddasi bilan aybdor deb topilib, unga nisbatan 5 yil 9 oy 8 kun ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan. Shuningdek, K. Shodiyevdan fuqaroviy da'vog'ar – "Anor bank" AJ foydasiga 466 million 794 ming so'm moddiy zarar undirilishi belgilangan.

Sud majlisida da'vog'arlardan so'ralganda, ular firibgar bilan bir jamoada ishlashini, pasport ma'lumotlarini noqonuniy ravishda shaxsiy delosidan olganini, ularni aldab yuz qiyofasini telefoniga tushirib, ularning nomidan "Anor bank" AJ mobil ilovasi orqali onlayn mikroqarz shartnomalarini rasmiylashtirib, 90 million 400 ming so'm pul mablag'ini o'zlashtirganini, sud hukmi bilan firibgarning qilmishlari o'z tasdig'ini topganini, ko'pchilik jamoadoshlar K. Shodiyevning jinoyat qilmishidan jabr ko'rganini, endilikda bank ulardan ushbu qarzdorlikni to'lashni talab qilayotganini, mikroqarz shartnomasi soxta yo'l bilan tuzilganini, bu kreditlarni to'lashga ularning imkoniyati yo'qligini bayon qilishdi.

Fuqarolik protsessual kodeksining 75-moddasiga ko'ra, sud hammaga ma'lum deb topgan holatlar isbotlashga muhtoj emas.

Jinoyat ishi bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hukmi sud tomonidan hukm etilgan shaxs harakatlarining fuqarolik-huquqiy oqibatlarini to'g'risidagi ishni ko'rib chiqayotgan sud uchun faqat shu harakatlar sodir etilgani yoki sodir etilmagani va ular mazkur shaxs tomonidan sodir etilgani yoki etilmagani masalalari yuzasidan majburiydir.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudining 2024-yil 24-yanvardagi hal qiluv qaroriga asosan da'vog'ar M. Nosirov va M. Abdullayevlarning javobgar – "Anor bank" AJga nisbatan mikroqarz shartnomalarini haqiqiy emas, deb topish haqidagi da'vo arizasi qanoatlantirilib, mikroqarz shartnomalarini haqiqiy emas, deb topish belgilandi.

Mavluda BOBORAIMOVA,
fuqarolik ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tumanlararo sudi sudyasi

MAS'UL XODIMNING
MISI CHIQDI

Ko'pchilik keyingi yillarda atrof-muhitning ifloslanishini, atmosfera havosining buzilishini iqlim o'zgarishi bilan bog'lamoqda. Aslida bunga jiddiy sabablardan biri mamlakatimizning barcha hududlari qurilish maydoniga aylangani, ko'p qavatli binolarning qurilayotgani bois ko'plab daraxtlarning yo'q qilinayotgani oqibati ekanini tan olgimiz kelmaydi. Albatta, tan olgimiz kelmaydi-da, tabiatga adolatsizligimiz tagida moddiy manfaat gulxandek lovullab, ko'zimizni tekin boylik ko'r qilib turganda, vijdonimiz mudrab yotganda, tan olish oson ekanmi?

Daraxtlar har qanday ko'rkam shaharning ko'rki, go'zal makonning "vizitkasi", ya'ni tashrif qog'ozini ekanini ta'kidlashga hojat bo'lmasa kerak! Ana shu yashil olam tobora yo'qolib borayapti. Afsuski, daraxtlarni kesish, uning uvolidan qo'rqmaslik kundan-kunga avj olmoqda. Ayniqsa, aynan tabiatni asrash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilishga mas'ul bo'lgan shaxsning tabiatga, o'z kasbiga bunday xiyonatini kechirish qiyin.

Jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudida xuddi ana shunday tabiatga adolatsizlik qilganlarga sherik bo'lgan Zohid Ortiqovning (ism-shariflar o'zgartirilgan) jinoyat ishi ko'rib chiqildi.

Navqiron yoshdagi yigitning nafs quliga aylanishi oqibatidagi birgina xatosi butun umriga qora chiziq tortishi, hayotiga dog' bo'lishini kim o'ylabdi deysiz. Z. Ortiqov Navoiy viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi o'rmonlarni rivojlantirish va cho'llanishga qarshi kurashish sho'basini bosh mutaxassisi vazifasida ishlagan. Oddiy qilib aytganda, daraxtlarni asrashga, o'rmonlarni rivojlantirishga mas'ul xodim.

Sudlanuvchi Z. Ortiqov lavozim majburiyatlariga ko'ra, belgilangan tartibda ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha ishlarni ko'rib chiqish, mansabdor shaxslar va fuqarolarga jarimalar solish, shuningdek, ushbu ma'muriy huquqbuzarliklar oqibatida tabiiy resurslar va atrof-muhitga yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish kabi vazifalarni bajarish vakolatiga ega bo'lgan. U viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmasi boshlig'ining 2022-yildagi tegishli buyrug'iga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish huquqini beruvchi attestatsiya natijalariga ko'ra tekshirish o'tkazish vakolatiga ega bo'lgani, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 261-moddasiga muvofiq, Respublika ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi nomidan ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va jarima solish tariqasida ma'muriy jazo chorasini qo'llashga haqli, yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilashi mumkin bo'lgan hokimiyat vakili hisoblangan.

Mas'ul xodim ana shu vakolatdan foydalanayotganda, to'g'ri yo'l qolib, egri yo'lni tanladi. Hammasi fuqarolardan biri shahardagi "Tong" kafesi yonida daraxt kesilganidan xabardor qilish uchun unga qo'ng'iroq qilganidan boshlandi. Xizmat yuzasidan voqea joyiga borib, kesilgan daraxtlar uchun zararni qoplash to'g'risidagi hujjatlarni rasmiylashtirishni rejalashtirgan mas'ul xodim bu qurilish obyekti yonidagi daraxtlarni kesib tashlash uchun ruxsat so'ragan yana bir huquqbuzar M. Ochilovni "qo'lga oldi". Qurilish obyektida 3 ta daraxtni kesgan S. Usmonov nomiga 92 million 400 ming so'm, A. Ergashev nomiga 5 million so'm zarar va jarima pullarini rasmiylashtirdi.

Z. Ortiqov o'z xizmat vazifasini suiiste'mol qilib, jinoiy yo'llar bilan noqonuniy daromad orttirish maqsadida "Innovatsion Group Navoiy" MChJ ish yurituvchisi M. Ochilovning "Tong" kafesi binosi hududidan ko'p qavatli bino qurish uchun ajratilgan yer maydonidagi manzarali daraxtlarni olib tashlash bo'yicha og'zaki murojaatidan o'zining g'arazli maqsadlarida foydalanadi. U huquqbuzarlikni belgilangan tartibda rasmiylashtirmaslik evaziga mulkiy manfaatdor bo'lishni rejalashtirib, mazkur qurilish obyektida kesilishi mumkin bo'lgan 4 tup tut daraxti uchun ish yurituvchidan 40 million so'm, kesilgan daraxtlarning zarari uchun 25 million so'm, jami 65 million so'm miqdoridagi pul mablag'ini pora tariqasida berishni talab qilib, "savdolashgan". 2023-yil 28-avgust kuni Navoiy shahar hokimligi binosi oldida M. Ochilovga tegishli avtomashinada bundan avval xuddi shu qurilish obyektida 3 ta daraxtni kesgan S. Usmonov nomiga rasmiylashtirilgan 92 million 400 ming so'm zarar summasi, A. Ergashev nomiga rasmiylashtirilgan 5 million so'm zarar va jarima pullari hamda endi kesilishi kerak bo'lgan 4 tup tut daraxti uchun 40 million so'm, daraxtlar kesilgandan keyingi zararni kamaytirib hisoblash va'dasi xizmati evaziga 25 million so'm, jami 164 million 700 ming so'm pulni pora tariqasida olgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda ashyoviy dalillar bilan ushlangan.



Sud muhokamalarida, garchi, aybdor Z. Ortiqov "Innovatsion Group Navoiy" MChJ rahbari S. Usmonovga nisbatan 92,4 million so'mlik jarima hujjatlarini rasmiylashtirganidan so'ng uning uyali telefoniga qo'ng'iroq qilib, unga belgilangan jarimani to'lab berishini, agar ushbu jarima to'lovini amalga oshirsa, sud tomonidan qonuniy yengillik bo'lishini tushuntirganini bayon qilib, o'z qilmishlarini oqlamoqchi bo'lgan bo'lsa-da, uning keyingi holatlardagi harakatlari unga qarshi dalil sifatida isbotini topdi.

Tabiatga xiyonat ham jinoyatdir. Jinoyatga esa jazo muqarrar! Sudda Z. Ortiqov Jinoyat kodeksining 210-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyatni sodir etishda aybli deb topildi va unga ushbu modda bilan Jinoyat kodeksining 45-moddasini qo'llab, 2 yil muddatga mansabdorlik va moddiy javobgarlik bilan bog'liq lavozimlarda ishlash huquqidan mahrum qilgan holda 1 yil 6 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlandi.

Dilobar PARDAYEVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Navoiy shahar sudi sudyasi,
Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

Konstitutsiyaga asosan har kim fikrlash, soʻz hamda istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Ammo kishilar boshqa huquq va erkinliklari qatorida axborot tarqatishda ham boshqa shaxslarning, jamiyat hamda davlatning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.



MILLIY QADRIYATLAR VA IJTIMOY AXLOQQA ZID AXBOROTNI TARQATISH MUMKINMI?

Xoʻsh, qonunchiligimizda milliy qadriyatlar va ijtimoiy axloqqa zid axborotni tarqatish masalasi qanday tartibga solingan? Qanday toifadagi axborotni tarqatish taqiqlangan? Ushbu cheklovga rioya etilmasa, nima boʻladi?

Qanday toifadagi axborot boshqa kishilar, jamiyat hamda davlatning qonuniy huquq va manfaatlariga putur yetkazadi?

Konstitutsiyaga koʻra, axborotni izlash, olish va tarqatish huquqini faqat konstitutsiyaviy tuzum, aholi sogʻligʻi, ijtimoiy axloq, kishilarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligi va tartibini taʼminlash, shuningdek, davlat sirlari yoki boshqa sirlar tarqashining oldini olish uchun cheklashga yoʻl qoʻyiladi.

Shu oʻrinda aytish kerakki, "ijtimoiy axloq" tushunchasi mavhum boʻlib, ijtimoiy axloq meʼyor, mezon va asoslari hech bir hujjatda belgilanmagan.

Jumladan, qonunchilikka koʻra, fuqarolarning shaʼni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obroʻsiga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yoʻl qoʻyuvchi axborot yoki jamiyatga, davlatga hurmatsizlikni namoyon etuvchi, shu jumladan, beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatish ham taqiqlangan.

Milliy qadriyat, anʼana va udumlarni saqlashga, hurmat qilishga majburmi?

Masalan, oila Sharq jamiyatidagi eng asosiy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun hamma oila qurishga majburmi? Javob – yoʻq. Konstitutsiyaga asosan har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega.

Yaʼni, inson istasa, oila quradi, istamasa toq oʻtadi va

bu kishining muhokama qilinishi kerak ham boʻlmagan fundamental huquqi hisoblanadi.

Ammo bu yerda eʼtibor qaratilishi lozim boʻlgan jihat – bunday qarorga kishini oʻzining va boshqalarning munosabati.

Huquqiy jihatdan aytadigan boʻlsa, kishilar oʻzgarining axloqiy qarashlari, qadriyatlari va hayot tarzini maʼqullashi, qoʻshilishi shart emas, biroq uni hurmat qilishga majbur. Bunda hurmat qilish kishining qarashlarini odatiy va tabiiy qabul qilishni emas, balki qarama-qarshi fikrlarga nisbatan tolerant boʻlishni va bunday qarashdagi kishilar shaʼni va qadr-qimmatini yerga urmaslik kerakligini anglatadi.

Yuqorida keltirilgandek, har bir kishi erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Ammo Konstitutsiyaga koʻra, kishilar huquq va erkinligini amalga oshirishda boshqa kishilar, jamiyat va davlatning huquq va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi kerak. Yaʼni, boshqaning huquqi boshlangan joyda kishining huquqlari, shu jumladan, axborot tarqatish huquqi tugaydi. Kishilar boshqalarning huquqlari, erkinliklari, shaʼni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur.

Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, fuqarolar milliy qadriyat, anʼana va udumlarni saqlash va rioya qilishni oʻzlari uchun oʻzlari hal qilsalar-da, ularni hurmat qilishga majburdirlar.

Bu majburiyat, oʻz navbatida, fuqarolarning shaʼni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obroʻsiga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yoʻl qoʻyuvchi axborot yoki jamiyatga, davlatga hurmatsizlikni namoyon etuvchi, shu jumladan, beodoblik bilan ifodalangan axborotni tarqatishni ham taqiqlaydi.

Yana shuni ham qoʻshimcha qilish kerakki, jamiyat kayfiyatidagi oʻzgarishlar, jumladan, ayollar va erkaklar oʻrtasidagi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan radikal qarashlarni yumshatish va kishilarning shaʼni va qadr-qimmatiga tajovuzlarning oldini olish maqsadida ayrim toifadagi axborotni tarqatish uchun javobgarlik belgilangan.

Masalan, qonunchilikka kiritilgan soʻnggi oʻzgarishlarga koʻra, ikki yoki undan ortiq xotin bilan er-xotin boʻlib yashashni targʻib qilish, ushbu mazmundagi qarashlarni, gʻoyalarni yoki chaqiriqlarni tarqatish, jins boʻyicha kamsitishni targʻib qilish, shu jumladan, xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ochiqdan-ochiq inkor etish, ushbu mazmundagi qarashlarni tarqatish endilikda maʼmuriy javobgarlikka sabab boʻladi.

Shunga qaramay, qonun konstruktiv tanqidni taqiqlamaydi. Jamiyki, masalalar yuzasidan fikr bildirish mumkin, faqatgina fuqarolarning shaʼni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obroʻsiga putur yetkazmaslik, jamiyat va davlatga hurmatsizlik qilmaslik sharti bilan.

Murodjon NAJMIDDINOV,
huquqshunos

8 YOSHIDA "TUGʻILGAN" QIZ

Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 20-yanvardan 2024-yil 20-martga qadar eʼlon qilingan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" shiori ostidagi aksiya Sariosiyo tumanida ham qizgʻin davom etmoqda.

Fuqaro Dilshod Ziyoyev va Marhabo Eshqoʻziyevlarning muammolari ham mazkur aksiya doirasida qonuniy yechim topdi. Gap shundaki, er-xotinning turmushlaridan 2016-yil 16-sentabr kuni qiz farzand dunyoga kelgan. Ammo oʻsha paytda ular qizaloqqa tugʻilganlik haqidagi guvohnoma olishmagan. Joriy yilning 31-yanvar kuni tuman FHDY boʻlimi tomonidan fuqaroga amaliy yordam berish yoʻli bilan tugʻilganlik guvohnomasi rasmiylashtirib berildi.

Umuman olganda, aksiya doirasida tumanimiz

mahallalari boʻyicha oʻrga-nishlar oʻtkazilib, tugʻilganlik guvohnomasini olmagan yoki yoʻqotgan, qonuniy nikohdan oʻtmay yashayotgan, ota-onasi yoxud boshqa yaqinlarining oʻlim guvohnomasi yoʻqotilgan, sud qaroriga binoan ajrashgan boʻlsa-da, nikohni bekor qilish toʻgʻrisidagi guvohnomani olmagan oilalar aniqlanib, tegishli hujjatlar rasmiylashtirib berilmoqda.



Shalola RAHMONOVA,
Sariosiyo tuman adliya boʻlimi FHDY boʻlimi inspektori

EʼLONLAR

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 7-martdagi 101-um-son buyrugʻi bilan "HIMOYA-2022" advokatlik byurosi advokati Toshmatova Mamlakatxon Abdulxayevna sudyalik lavozimiga tayinlangani munosabati bilan ish davriga advokatlik maqomi toʻxtatildi.

Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 29-fevraldagi 82-um-son buyrugʻi bilan "FAIR SECRET" advokatlik byurosi advo-

kati Voxobjonov Shoxruxbek Ravshanbekovichga adliya boshqarmasi tomonidan 2019-yil 2-fevralda berilgan L-70662689 (159642) raqamli advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyaning va "NETWORK-LEGAL" advokatlik byurosi advokati Raxmonov Oybek Xasanboy oʻgʻliga adliya boshqarmasi tomonidan 2021-yil 23-noyabrda berilgan L-70664200 (192862) raqamli advokatlik faoliyati bilan shugʻullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2024-yil 1-martdan 3 oy muddatga toʻxtatildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 495-moddasiga binoan, ikki oygacha boʻlgan muddatga ishga qabul qilingan shaxslar vaqtinchalik ishlarda band boʻlgan shaxslar hisoblanadi. Shaxsni vaqtinchalik ishga qabul qilganda, ishning vaqtinchalik ekani mehnat shartnomasida koʻrsatilishi shart va vaqtinchalik ishga qabul qilingan xodimga nisbatan sinov muddati qoʻllanilishi mumkin emas.

Vaqtinchalik xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish tartibidan xabardormisiz?



Vaqtinchalik ishga qabul qilingan xodimga mehnat taʼtili berish tartibi ham doimiy ishga qabul qilingan xodimlarga beriladigan mehnat taʼtiliga nisbatan tubdan farq qiladi. Jumladan, vaqtinchalik xodimlar ishning har bir oyi uchun kamida ikki kalendar kun hisobidan haq toʻlanadigan mehnat taʼtili olish huquqiga ega. Agar xodim ushbu mehnat taʼtilidan foydalanmagan boʻlsa, u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilish chogʻida ishning har bir oyi uchun ikki ish kuni hisobidan kompensatsiya toʻlab beriladi.

Mehnat kodeksining 499-moddasiga asosan, vaqtinchalik ishga qabul qilingan xodim mehnat shartnomasini oʻz tashabbusiga koʻra bekor qilishi uchun ish beruvchini uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirgan boʻlishi lozim. Shuningdek, tashkilot yoki uning alohida boʻlinmasi tugatilganda, xodimlar soni va shtat oʻzgargan holatlarda va xodimning malakasi yetarli boʻlmagani sababli bajarayotgan ishga binoan muvofiq boʻlganda ish beruvchi xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasini belgilab qoʻyilgan muddatdan oldin bekor qilishi uchun vaqtinchalik muddatga ishga qabul qilingan xodim uch kalendar kun oldin yozma shaklda, imzo qoʻydirib ogohlantirilishi shart.

Yuqoridagi moddaning uchinchi qismiga muvofiq, vaqtinchalik ishga qabul qilingan xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi xodimning aybli harakati yoki harakatsizligi oqibatida bekor qilinishiga toʻgʻri kelsa, xodim shartnoma bekor qilinishidan kamida bir kun oldin yozma shaklda ogohlantirilishi lozim.

Ish beruvchi yozma ogohlantirish oʻrniga xodimga mutanosib pulli kompensatsiya toʻlash huquqiga ham ega.

Vaqtinchalik xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilishning yana bir oʻziga xos xususiyati shundaki, mehnat shartnomasi va jamoa shartnomasida boshqacha tartib belgilab qoʻyilmagan boʻlsa, ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan boʻshatish nafaqasi toʻlanmaydi.

Nihola MIRZAYEVA,
Yashnobod tuman adliya boʻlimi yuridik xizmat koʻrsatish markazi bosh yuriskonsulti

8 MULOHAZA



Ksenofont o'zining Suqrot haqidagi xotiralarida hali 20 yoshga endi qadam qo'yayotgan yosh afinalik yigitning juda o'rnak bo'ladigan tarixini hikoya qiladi. Bu o'spirin davlat amaldori bo'lishga tirishib, odamlar diqqatini o'ziga jalb qilish uchun otashin nutqlar so'zlay boshlaydi. Yigit Suqrot huzuriga kelganda, buyuk alloma undan so'raydi: "Glavkon, davlat boshqaruvida hokimiyatga ega bo'lish uchun katta amal istayotganingni eshitdim – shu gap haqiqatmi?"

– "Ha, tan olaman, tezroq hokimiyatga erishishni istayman".

– "Davlatni boshqarish, insonga taqdirning buyuk in'omi, – dedi Suqrot. – Vatanga qanchalik ko'p nafing tegishi mumkin! Yurt va xalq uchun ko'p yaxshi ishlar qilib o'zingni va seni voyaga yetkazgan oilangni shon-sharafga burkaysan. Juda olijanob ishni niyat etibsan. Albatta, bunday sharafta o'z-o'zidan erishib bo'lmaydi, bunga munosib ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi – to'g'rimi?"

– "O, albatta", – deb shosha-pisha javob berdi Glavkon.

"Ibrat bo'ladigan tarix"



– "Menga aytchi, – so'zini davom ettirdi Suqrot, – ishni nimadan boshlamoqchisan?"

Yigitcha bu savolga javob bera olmadi. Chunki u ishni nimadan boshlash kerakligini hali hech qachon xayoliga ham keltirmagandi.

– "Mayli, masalaga boshqa tomondan yondashamiz. Masalan: xazina davlatni rivojlantirish uchun zarur, demak sen xazinaga pul tushumini ko'paytirishga harakat qilasan – shundaymi?"

– "Albatta shunday".

– "Xazinaning foydasini ko'paytirish uchun ishni nimadan boshlashing menga qiziq tuyulayapti. Albatta, xazina qaysi manbalardan foyda oladi va qancha oladi va qayerdan oladi – bularning bari senga yaxshi ma'lum bo'lsa kerak". O'spirin bularning birortasini ham aniq bilmasligini tan oldi.

– "Unaqada menga ayt-chi, nazaringda qanday chiqimlar ortiqcha va qay bir xarajatlarni qisqartirish kerak deb o'ylaysan?"

– "Tan olishim kerakki, bu haqda shu paytga qadar tuzukroq o'ylab ham ko'rmaganman. Menimcha bu haqda ko'pam o'ylab o'tirmaslik lozim – dushman hisobiga xazinani to'ldirish turganida bular haqida bosh qotirishning o'zi ortiqcha...", deydi yigitcha.

– "Mayli sen aytganchalik bo'la qolsin, ammo dushmanning xazinasini qo'lga kiritish uchun uning ustidan g'alaba qozonish kerak, mabodo g'anim sendan ustun kelsa sening xazinangni qo'lga kiritadi. Demak urushni mo'ljal-lab turgan bo'lsang, o'zingni va dushmanning kuchini aniq bilishing kerak bo'ladi. Xo'sh, gap urush haqida ketar ekan ayt-chi: bizning quruqlikdagi qo'shinlarimiz va dengizdagi flotimiz soni qancha va dushman tomoni qanday kuch-qudratga ega?"

– "Bir daqiqa ichida yoddan bu narsalarni hisoblab chiqa olmayman".

– "Mana sen davlatni boshqarmoqchisan, – dedi Suqrot. – Xo'sh, xalqni boqish uchun bir yilga qancha bug'doy kerakligini, qanchasini zaxira qilib, qanchasini chetdan xarid qilish kerakligini bilasanmi?"

– "Bularning barchasini qayerdan ham bilardim. Suqrot, – deb javob berdi yigitcha. – Sen shunchalik ko'p narsalarni so'rayapsanki, bularni bilish uchun qattiq mehnat qilish, o'qib-o'rganish kerak".

– "Axir bularni bilmasdan turib hokimiyatni boshqarishning iloji yo'q Glavkon! O'z uyingga nima va qancha kerakligini bilmay turib uni boshqara olmaysan, davlatni boshqarish esa xonadonni boshqarishdan ming chandon qiyin. Mana sening o'z uying bor, aniqroq aytganda amakingni xonadonida yashaysan. Bu uy anchayin ta'mirlab bo'lib qolgan. Ishni shu uyni ta'mirlashdan boshla – qani ko'ramiz aqling, kuching yetarmikan?"

– "Men bu ishga jon-jon deb kirishardim-u, ammo amakim meni maslahatimga quloq solmaydi-da".

– "Bu endi qanaqasi bo'ldi – dedi Suqrot. – Sen bor-yo'g'i amakingni gapingga ko'ndirolmaysan-u, o'z nutqlaring bilan butun Afina aholisini gapga ko'ndirmoqchi bo'layapsanmi?"

Bu suhbatning yakuniy natijasi shunday bo'ladiki, hokimiyatparast yigitcha odamlar oldida ma'ruzalar o'qish, nutqlar so'zlashni bas qilib, butun boshi bilan o'qishga sho'ng'iydi.

Bu oddiy tarix hozir ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan: atrofimiz davlat hokimiyati boshqaruvidan yuqori mansablarni egallash ishtiyoqida, turli shubhali o'zgarishlarga qo'l urayotgan, savodsizlarcha tayyorlangan chalarim loyihalarni amalga oshirishga da'vat etib otashin nutqlar so'zlayotgan Glavkonlar bilan to'lib-toshib yotibdi.

**Konstantin POBEDONOSSEV,
Rus tilidan Jaloliddin SAFOYEV
tarjimasi**

SO'RAGAN EDINGIZ



– Qizim 2012-yilda oilaviy va shaxsiy sabablarga ko'ra uyda tug'ilgan. Bugungi kunga qadar uning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi yo'qligi uchun bog'chaga ham, maktabga ham bera olmaganman. Yaqinda televizor orqali FHDY xodimlari "Huquqiy aksiya" bo'yicha uyda tug'ilgan bolalarga guvohnoma berayotganini ko'rib qoldim. Shunday yo'l bilan guvohnoma olishning tartibi haqida ma'lumot bersangiz?

Ma'mura MAHMUDOVA

UYDA TUG'ILGAN BOLAGA GUVOHNOMA OLIISH TARTIBI

– Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiyaning 3-moddasiga ko'ra, davlat yoki xususiy tashkilotlar, ijtimoiy himoya organlari, sud, ma'muriy organlar hamda qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaga nisbatan amalga oshiriladigan barcha harakatlarda bolaning manfaatlari birinchi o'rinda turishi belgilangan.

Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi "Nikoh, oila va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 20-bandiga muvofiq, tug'ilganlikni qayd etish uchun bola tug'ilganligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnomasi (tug'ilganlikni kompleks davlat xizmati sifatida qayd etish bundan mustasno), ota-onalarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari, (fuqarolik pasporti, xorijga chiqish pasporti, identifikatsiyalovchi ID-karta, harbiy xizmatchining harbiy bileti), nikoh tuzilganligi to'g'risidagi gerbli guvohnoma yoki otalikni belgilash haqidagi ariza yoxud nikohda bo'lmagan onaning arizasi taqdim etiladi.

Tug'uruqxonalaridan tashqari joylarda va tibbiy yordamsiz tug'ilgan bolaning tug'ilganligini qayd etish uchastka shifokori (feldsher yoki akusher) tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida amalga oshiriladi.

Bunday holatlarda bolaning ushbu onadan tug'ilganligiga guvoh bo'lganlar ishtirokida tuzilgan va uchastka shifokori (feldsher yoki akusher) tasdiqlagan dalolatnoma tibbiy ma'lumotnoma berish uchun asos hisoblanadi.

Agarda sizning farzandingiz uy sharoitida tug'ilgan bo'lsa, siz bola tug'ilgan hududdagi uchastka shifokoriga murojaat qilishingiz va bolani tug'ilganligiga guvoh bo'lganlar ishtirokida (doya (akusher), qo'shnilar, mahalla faollari va h/k) dalolatnoma tasdiqlatishingiz va ushbu dalolatnoma orqali hududingizda joylashgan tug'uruq kompleksiga murojaat qilishingiz lozim.

Tug'uruq kompleksi tomonidan tegishli tartibda bolaga nisbatan rasmiylashtirilgan ma'lumotnoma FHDY bo'limida tug'ilishni qayd etish uchun asos bo'ladi.

Eslatib o'tish joizki, fuqarolik holatini qayd etish fuqarolarning huquq va burchlari paydo bo'lishiga sabab bo'lib, xizmat qiluvchi hujjat (gerbli guvohnoma) berish uchun asos bo'ladi. Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishning ahamiyati shundaki, unga asosan FHDY organi tomonidan berilgan guvohnoma va unda ko'rsatilgan faktning to'g'riligini tasdiqlovchi shaxsiz dalil hisoblanadi.

Shunga ko'ra, FHDY bo'limi tug'uruq kompleksi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnomaga qo'shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa hujjatlarni ham talab qilishi mumkin. Bugungi kunda Adliya vazirligi tashabbusi bilan "Hech bir shaxs hujjatsiz qolmaydi" huquqiy aksiyasi o'tkazilmoqda. Mazkur aksiya doirasida Adliya vazirligi tizimidagi xodimlar tomonidan tegishli hujjatlari mavjud bo'lmagan fuqarolarning muammolari uyma-uy yurgan holda o'rganilmoqda. Muammolar joyida, qonuniy hal qilinib, ularga hujjatlar rasmiylashtirib berilmoqda.

Feruza RAHIMOVA,
Bektemir tuman adliya bo'limi FHDY bo'limi mudiri